

O'SMIRLARDA TAFAKKUR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK, ONTAGENETIK VA IJTIMOIY XUSUSIYATLARI

*Durdiboyeva Nafosat Hikmat qizi
Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti
Amaliy psixologiya ta'lif yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlar psixikasida kechadigan o'zgarishlar, ularning bilish jarayonlari hamda tafakkur tushunchasi, o'smirlik davrida tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari qay tarzda kechishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'smir, pedagog, ontogenetik, tafakkur, ong, psixika.

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtayi nazaridan ham, pedagogik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni bu yosh oralig'i 5-8 sinfga to'g'ri keladi. O'smir o'quvchilarining ta'lif va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi mifik o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi.

Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatları bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rta sidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir. Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik xususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdar. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Bola boshlang'ich sinfni tugatgach, uning o'rta maktabda o'qishga o'tishi hayotida burilish davri hisoblanadi. O'smirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-barang faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi. Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg'iz biologik jihatidan yetilishi va taraqqiyot yetilishining natijasi bo'lmay, balki, bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo'lishi natijasida o'smirning


taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lif va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy sharoitlar rolini konkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining roliga almashtirib bo'lmaydi. Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, o'smirning yoshi va uning xususiyatlari absolyut ahamiyatli kasb etmaydi. Bu farqlarni konkret ijtimoiy omillarning ta'siri bilan va o'smirlarga beriladigan turli ta'lif va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan tushuntirish mumkin. Taraqqiyotning asosiy yo'nalishi bolaning o'smirlik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteristikasini ajratish mumkin.

Tafakkurning alohida muhim o'ziga xos xususiyati – bu uning nutq bilan uzlucksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo'limgan holat, masalan, kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o'z ifodasini topadi. Biz doimo so'zlar orqali fikr yuritamiz. Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo'lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Nutq tafakkur qurolidir. Ma'lum fikr so'zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so'z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo'lgan murakkab jarayon.

Tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g'oyalar harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma'lum bir fikrdir. Tafakkur – bu kiritilgan yo'nalishli tadqiqiy, qayta o'zgarishli va bilish xususiyatiga ega bo'lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo'lgan nazariy va amaliy faoliyat. Tafakkur moddiy olam qonuniyatları, tabiat va ijtimoiy-tarixiy hayotdagi sababiy-oqibat aloqalari, insonlar psixikasi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Aqliy faoliyat natijalarini qo'llash sohasi bo'lgan amaliyot tafakkur faoliyatining manbai bo'lib xizmat qiladi. Tafakkur psixik faoliyat sifatida miyaning vazifasi hisoblanadi. Oddiy psixik jarayonlar, masalan, sezgilar uchun asos vazifasini o'taydigan yuqoriyoq darajadagi miya jarayonlari tafakkurning fiziologik asosini tashkil etadi. Lekin hozirda tafakkur jarayonini ta'minlovchi barcha fiziologik tuzilmalarning o'zaro ta'sir etish tartibi va ahamiyati haqida aniq fikr mavjud emas. Tafakkur faoliyatida miya peshona qismlari alohida ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir. Bundan tashqari, bosh miya po'stlog'ining tafakkurni gnostik (bilish) vazifasi bilan ta'minlovchi doirasi, shuningdek, tafakkur jarayonini ta'minlovchi miya nutq markazlari ham katta ahamiyatga ega.

Tafakkurning ikki darjasini mavjud: fahm-farosat – abstraksiyalardan foydalanish o'zgarmas chizmalar, namunalar chegarasida sodir bo'ladigan oddiy tafakkur, sog'lom fikr, tafakkurning boshlang'ich darjasini, uning mantiqiy mazmunini emas, balki, ibora va dalillar tuzilishini o'rGANADI, bu aniq, izchillliklik bilan mulohaza yuritish, fikrlarni to'g'ri tuzish, dalillarni qat'iy tizimlashtirish, tasniflash layoqati; aql (dialektik

tafakkur) – abstraksiyalarni ijodiy qo'llash va ular tabiatini ongli tadqiq etish xususiyatiga ega bo'lgan nazariy bilishning oliy darajasi, aql yordamida inson narsalar mohiyati, ularning qonunlari va qarama-qarshiliklarini anglab etadi. Tafakkurning psixik faoliyat sifatidagi umumiy xususiyatlarni chizma shaklida keltirish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarova, M. (2021). BOSHLANG'ICH TA 'LIM O_ QUVCHILARINING PSIXIK TARAQQIYOTIDA INTEGRATSIYAVIY-INNOVATSION YONDASHUVLAR AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
2. Nazarova, M. (2021). THE ROLE OF RELIGIOUS PSYCHOLOGY IN PERSONAL EDUCATION. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
3. Nazarova, M. (2021). Globallashuv jarayonida milliy til omili. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
4. Mustafoqizi, N. M. (2021). Psychology of the Leader. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(4), 34-36.